

**DUNYOVIY VA DINIY DUNYOQARASH: TARKIBIY TUZILISHI VA ASOSIY
XUSUSIYATLARI**

Юлдашев Рустам Даниёрович

Шароф Рашидов номидаги Самарқанд давлат университети

Тарих факультети, Самарқанд тамаддуни кафедраси

доцент, фалсафа фанлар доктори (PhD)

Email: rustamyuldashev361978@gmail.com

Тел: 91-521-84-01

XXI asrga kelib jahonda insoniyatning moddiy va ma'naviy hayotida yuz berayotgan jarayonlar odamlarning tabiat, jamiyat va inson tafakkuri haqidagi mumtoz qarashlarni tubdan o'zgartirib yubormoqda. Chunki, tabiat sirlarini yanada chuqurroq bilish orqali yangi nanotexnologiyalar olamining kashf etilishi, jamiyat hayotining rivojlanish qonuniyatlarini anglash natijasida yangicha demokratik tamoyillarga asoslangan xalqchil davlatlarning shakllanib borishi, ma'naviyat olamida din omilining ijtimoiy vaqt oraliq'ida olamda tinchlikni saqlash, barqaror rivojlanishni taminlash tomon yuz burayotganligi, ayni vaqtda ilm-fan yutuqlaridan ommaviy qirg'in qurollarini yaratish, ularni sotish, odam savdosini avj oldirish orqali katta foyda ko'rish, millatshilik, irqshilik, diniy radikalizm, ekstremizm kabi g'oyalarini ilgari surib urush olovlarini yoqish natijasida siyosiy hokimiyatni qo'lga kiritish, qisqasi bo'lingan dunyoni qayta bo'lish uchun kurashlar ham avj olmoqda. Bu voqea, hodisa, jarayonlarning barchasi u yoki bu mazmun va shakldagi dunyoviy va diniy dunyoqarashlarning hosilasi sifatida bo'y ko'rsatmoqda.

Yangi O'zbekistonni barpo etishda jamiyat hayotida yuz berayotgan jarayonlarni yoshlarning dunyoviy va diniy dunyoqarashlarini uyg'unlashtirish asosida idrok etishiga imkoniyat beruvchi dunyoviy va diniy omillar qatoriga quyidagilarni kiritish mumkin.

1. Dunyoviy va diniy dunyoqarashning bir tarkibiy tuzilishga egaligi. Dunyoviy va diniy dunyoqarash murakkab tuzilishga ega bo'lgan ma'naviy hodisa bo'lib, uning mazmun-mohiyatini belgilashda dunyoviy va diniy bilimlarni umumlashtirish, ishonch, qadr-qimmat, ideal, e'tiqod, faoliyat, hayot normalari muhim ahamiyat kasb etadi. Ularga yarim funktsionallik xos bo'lib, uning asosini odamning dunyo sir-asrorlarini bilishda fizio-psixologik mexanizmlar orqali mo'ljal olishi tashkil qiladi. Bunda so'z inson ma'naviy dunyosining hissiyot, aql, erk va ularning birgalikda harakat qilishi haqida ketmoqda. Shunga ko'ra, dunyoviy va diniy dunyoqarashning tarkibiy qisimlariga quyidagilarni:

“a) dunyoni sezish – bu odamlarning olamdagi real mavjud narsalarni sezgi organlari orqali his etishi bo'lib, uni dunyoqarashning emotsional- ruhiy;

b) dunyoni idrok etish – kishilarning atrof-borliqni orttirilgan tajribasi tufayli timsoliy idrok etishi bo'lib, uni dunyoqarashning dunyo haqida tasavvurlarning shakllanish;

v) dunyoni tushunish – dunyoning mohiyatini, undagi narsa va hodisalarning o'zaro aloqalarini bilib olish kiritish mumkin"¹.

Demak, odamlarning tabiat va jamiyat haqidagi bilimlari sintezlanib dunyoning umumiy manzarasi, tabiatshunoslik ilmlarining qo'shilishidan dunyoning tabiiy-ilmiy manzarasi, ijtimoiy fanlarning mantiqiy birlashishidan dunyoning ijtimoiy-tarixiy manzarasi, dunyoning mafkuraviy manzarasi, dunyoning diniy manzarasi kabilar yaratiladi. Dunyoviy va diniy dunyoqarashlarni uyg'unlashtirish asosida bir butun olamning umumiy manzarasini ishlab chiqish esa barcha dunyoviy va diniy ilm sohalarining vazifasi hisblanadi. Masalan, har ikkala dunyoqarashda ham olamning sheksizligi haqida ko'plab, bir biriga yaqin fikrlar bayon qilinganligini uchratish mumkin.

2. Dunyoviy va diniy dunyoqarashning sohibi – hazrati inson ekanligi. Bu esa dunyoviy va diniy dunyoqarash sohiblari olam va uning tuzilishi haqidagi fikrlar, nazariya, kontseptsiyalarni yaratuvshisi, ya'ni subeykti ekanligi, har qanday subeyktlarning esa mazkur masalani echishda muayyan bir konsensusga qilishi bilan ifodalanadi.

Shunga ko'ra dunyoviy va diniy dunyoqarash sohiblarini ikkiga ajratish mumkin.

1. Individual dunyoqarash sohiblari deb bir butun olam to'g'risida bir kishiga yoki alohida shaxsga xos bo'lgan qarashlarga aytiladi. Uning sohibi – bu konkret odam, shaxs, kishi hisoblanadi. Bunga misol qilib fizik olam haqida Baxtiyor Karimovning dunyoqarashi yoki shayx Muhammad Sodik Muhammad Yusuf hazratlarining individual dunyoqarashlarni keltirish mumkin.

2. Ijtimoiy dunyoqarash deb dunyo - olam haqida mehnat va xizmat jamoalari, ijtimoiy guruhlar, partiyalar, elat, millat, xalqlar xullas butun jamiyatga xos bo'lgan qarashlar tizimiga aytiladi. Bunga O'zbekiston tadbirkorlar jamoasining yoki biron bir diniy konfessiyalarning dunyoviy va diniy masalalar echimiga qaratilgan dunyoqarashlarini kiritish mumkin.

Dunyoviy va diniy dunyoqarash ijtimoiy dunyoqarash sifatida, uning negizida alohida odamlarning dunyoqarashlari yotadi. Har ikkala dunyoqarash ham – ko'p o'lchovli tizim bo'lib, uning shakllanishi va rivojlanishida inson ong va ong ostining turli xil sezgi, kayfiyat, intilish, ishonch, bilim, qadriyat, baho kabi qisimlari ishtirok etadi. Yuqoridagi tarkibiy qismlar, bir butunlikni tashkil qilib, insonning real hayotida u yoki bu darajada o'zgarishlar sodir bo'lishiga olib keladi.

Mamlakatimizda olib borilayotgan islohotlardan asosiy maqsad fuqarolarimizning dunyoviy va diniy dunyoqarashini uyg'unlashtirish asosida yoshlarning dunyoqarashini tubdan o'zgartirish orqali Uchinchi Renessans poydevorini yaratib, erkin va baxtli hayot keshirishlarini ta'minlashdan iboratdir. Chunonchi, bugungi kunda Yangi O'zbekistonni

¹ YAxshilikov J.YA. Falsafa. Darslik (bakalavr yo'nalishi uchun). – Samarqand: Samarqand davlat universiteti, 2025. – B.14.

bunyod etish borasida olib borilayotgan islohotlar jarayonida Sh.M.Mirziyoyev aytganidek “Dunyoqarashni – ilm, daromad, manfaat o’zgartiradi”².

3. Dunyoviy va diniy dunyoqarashlar xarakteridagi umumiy o’xshashliklardir. Ma’lumki, odamlar o’ziga xos va sarmazmun dunyoviy va diniy dunyoqarashga ega bo’ladilar. Bu odamning dunyoqarashida ishonch va shubha, bilim va uydirma, umid va umidsizlik hamda boshqa qarama-qarshi bo’lgan fikr va g’oyalar o’z o’rnini topishi mumkin. Umuman olganda, odamlarning dunyoviy va diniy dunyoqarashi mazmunining miqdori va sifatini o’lchab bo’lmaydi. Shunga qaramasdan, odamlarning dunyoviy va diniy dunyoqarashi mazmunining sifati va xarakterini, ularning ijtimoiy va shaxsiy hayoti, odamlarga, mehnatga, boylikka, bilimga, sanatga va hakovzolar bo’lgan munosabati orqali bilib olish mumkin. Gap shundaki, odam dunyoviy va diniy dunyoqarashining mazmuni uning umumiy sifati va xarakterini belgilaydi. Agarda bir odam dunyoqarashini mazmuni olam, tabiat, jamiyat, odam, ong va hakovzolar to’g’risidagi teran dunyoviy bilimlarga asoslangan bo’lsa, unda bunday odamning dunyoqarashi ilmiylik xarakterga ega bo’ladi. Bunday dunyoqarashga ega bo’lgan olimlar qatoriga XX asrning eng mashhur fiziklaridan biri bo’lgan Albert Eynshteynni (1879- 1955) kiritish mumkin. Ingliz olimi Bertran Raseel (1872- 1970) ham o’zining matematik mantiq va tibbiyot fanlarining falsafiy muammolari bo’yicha olib borgan ilmiy izlanishlari bilan XX asrning eng mashhur olimlaridan biridir.

Agarda bir odamning dunyoqarash mazmuni olam, tabiat, jamiyat, odam, ong va hakovzolar to’g’risidagi teran dunyoviy bilimlarga asoslangan bo’lsada, lekin bu odamning iymoni komil va but bo’lsa, bunday odamning dunyoqarashi diniy xarakterga ega bo’ladi. Masalan, Ibn Sino va I.P.Pavlov (1849- 1936) kabilarning dunyoqarash shunday baholanishi mumkin. Shunday olim va mutafakkirlar borki, ular falsafa, matematika, fizika va boshqa bilim sohalarida buyuk kashfiyotlar qilganligiga qaramasdan, ularning dunyoqarashi ilmiy-materialistik emas, balki diniy-idealistik yoki idealistik xarakterga egadir. Masalan, I.Kant (1724-1804), Gegel (1770-1831), E.Max (1838-1916), A.Puankare (1854-1612) kabilarning dunyoqarashi shunday xarakterga ega bo’lgan.

Yuqorida zikr qilganimizdek, odamlarning dunyoviy va diniy dunyoqarashi nihoyatda xilma xil va ziddiyatli bo’lishi mumkin. Shuning uchun ham ayrim odamlarning dunyoqarash xarakterini belgilovshi omilni aniqlashning o’zi katta muammoga aylanadi. Bizningcha, har qanday dunyoqarash mazmunining asosiy unsurini odam o’z hayotining maqsadi va mohiyatini to’g’ri anglashi tashkil qiladi. Bu nihoyatda murakkab mantiqiy jarayondir. Har bir odam o’z umrining asosiy maqsadini anglashiga, o’zini o’zi (o’zligini) to’g’ri bilib olishi bilan birga, uning shaxsiy va ijtimoiy tizimlar (sinf, millat va h.k.) bilan bog’liq bo’lgan manfaat va ehtiyojlari hamda jamiyatda tutgan o’rni nihoyatda katta ta’sir qiladi.

² <https://www.uzreport.news/politiss/shavkat-mirziyoev-dunyo-arashni-nima-uzgartiradi-ilm-daromad-manfaat>

Shu fikrlardan kelib chiqib dunyoviy va diniy dunyoqarash xarakterini gumanistik va jaholatparast (reaktsion) turkumlarga ham bo'lish mumkin.

Dunyoviy va diniy dunyoqarashi gumanistik xarakterga ega bo'lgan odamlar hayotining asosiy maqsadini o'z xalqi va umuminsoniyatning ozodligi va farovonligi uchun olib boriladigan kurash bilan bog'laydilar. Masalan, Zardo'sht (er.av. VI asrda yashagan), Muhammad ibn Abdulloh (570-632), Alisher Navoiy (1441-1501), Moxandas Karamshand Gandi (1869-1949), Ibrohim Mo'minov (1908-1974), I.A.Karimov (1938-2016) va shu kabi buyuk insonlarning dunyoqarashi gumanistik xarakterga ega bo'lgan.

Dunyoviy va diniy dunyoqarashi jaholatparast xarakterga ega bo'lgan odamlar ayrim millat, sinf va boshqa ijtimoiy birliklar manfaatlaridan kelib chiqib faoliyat kechirsalarda ular boshqa millatlarga nisbatan genotsid o'tkazadilar. Jamiyatda zo'ravonlik, zulm va boshqa antidemokratik tartiblar o'rnatadilar, odamlarning haq-huquqlari poymol bo'lishiga yo'l qo'yadilar va hakovolar. Bunga fashizm, bolshevizm, ekstremizm etakshilarining terrorchilikka asoslangan dunyoqarashining xakteri shunga yaqqol misol bo'la oladi. Bu xususda davlatimiz rahbari Sh.M.Mirziyoyev: "Mintaqa aholisining bir qismi dunyoviylikni ateistik tizim deya noto'g'i talqin qilmoqda. Diniy ekstremizm mafkurasi ommaviy ongga global axborot-kommunikatsiya tarmoqlari orqali kuchli axborot-psixologik bosim o'tkazmoqda, bu esa jamiyatga, ayniqsa, yoshlarga salbiy ta'sir o'tkazmoqda. Natijada hamjihatlik tuyg'ulari yo'qolmoqda, qadriyatlar va axloqiy me'yorlar o'zgarmoqda, oilalar tanazzulga uchramoqda"³, - deb yozganda, nima uchun falsafiy va diniy-marifiy ta'lim-tarbiya orqali mamlakatimiz yoshlarining dunyoviy va diniy dunyoqarashini uyg'unlashtirish orqali kamolatga etkazish zaruriyatini mantiqiy jihatdan ochib bergan. Chunki, dunyoviy dunyoqarashni diniy dunyoqarashsiz shakllantirish va rivojlantirish dahriylikka olib kelsa, faqat diniy dunyoqarashni dunyoviy dunyoqarashga qarshi qo'ygan holda shakllantirilsa bu oqibatda diniy mutaassiblikka olib keladi. U albatta, diniy radikalizm va ekstremizmni keltirib shiqaradi.

Dunyoviy va diniy dunyoqarashning darajalari ham bor bo'lib, u har bir odamning ongida sifati bo'yicha qanday dunyoqarash qaror topganliginn bildiradi. Odamning dunyoviy va diniy dunyoqarashini uning darajasi bo'yicha asosan hayotiy-tajribaviy va ilmiy-nazariy turlarga bo'lish mumkin.

Insoniyat tarixidan shu narsa ma'lumki, har bir odam o'ziga xos va o'ziga mos bo'lgan dunyoviy va diniy dunyoqarashga ega bo'ladi. Bir odam barcha dunyoviy va diniy fanlar asoslarini teran bilmasada, olam, tabiat, jamiyat, odam, ong va hakovolar mohiyatlarini o'zining ko'p yillik shaxsiy va ijtimoiy hayoti va mehnat tajribasi asosida birmunsha bilib oladi. Uzoq-umr ko'rgan odamlarning dunyoqarashi o'z hayoti tajribasidan olgan bilimlarga

³ **Mirziyoyev Sh.M.** Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasi. To'ldirilgan ikkinchi nashri.-Toshkent "O'zbekiston" nashriyoti, 2022. - B.330-331.

boydir. Shuning uchun ham xalqimiz orasida “Qari bilganini pari bilmas” va “Qarisi bor uyda parisi bor” degan gaplar bejiz keng tarqalmagan. O‘zbek xalqining eng nodir udumlaridan biri ham qariyalarni e’zozlash va ularning pand- nasihatlarini bo’yicha yashashdir. Xalqimizning bir necha ming yillik hayotiy tajribasidan kelib chiqqan diniy-axloqiy dunyoqarashga taalluqli nihoyatda boy va nodir fikrlari mavjud.

Respublikamiz mustaqil va suveren davlat bo’lishi tufayli halqimiz bunday ziyo va durdona aql sarchashmasidan foydalanish imkoniyatiga ega bo’ldi. Shu bilan birga ulug’ avlod-ajdodlarimiz bizga benihoyat katta diniy dunyoqarashni ilm darajasiga ko’tarib, katta diniy-ma’naviy boylik qoldirib ketgan. Respublikamiz taraqqiy etgan davlatlar qatoriga tezda o’tib olishi uchun xalqimiz bu ma’naviy boylikdan bimalol bahramand bo’lishi kerak.

Hayotiy-tajribaviy darajaga ega bo’lgan diniy dunyoqarashning ahamiyati va salohiyati ancha sheklangan. Chunki u borliqning obyektiv qonunlari va odamlarning o’zgaruvchan solahiyatlariga asoslanmaganligi sababli, kelajakni oldindan bilish va jamiyatni ilmiy asosda boshqarishga imkon bermaydi.

Diniy dunyoqarashdan farqli o’laroq, dunyoviy dunyoqarash ilmiy-nazariy darajada shakllangan bo’lib, u olam, tabiat, jamiyat, odam, ong va hokozolarning mohiyati va barcha fanlarla erishilgan tabiat va jamiyat to’g’risidagi bilimlarga asoslangan bo’lib, har bir odamning shaxsiy va ijtimoiy hayotida ilm-fanni egallashda eng to’g’ri yo’l ko’rsatuvshi vosita sifatida xizmat qiladi. Bunda, asosan o’zining ilmiy - nazariy darajali dunyoviy dunyoqarashiga asoslanib, har bir odam o’zligini bilib va haqiqiy inson bo’lib etishi uchun jamiyatda o’z o’rnini topib olishi mumkin.

Xulosa o’rinda shuni aytish mumkinki, Yangi O’zbekistonning kelgusidagi istiqboli dunyoviy va diniy dunyoqarashi uyg’un rivojlangan yoshlarning shijoatiga bog’liqdir. Bu qarashlari bir biriga mutanosib keladigan yoshlar o’z vatani va xalqining haqiqiy jonkuyariga aylanadi. Shunday, dunyoviy va diniy dunyoqarashni uyg’unlashtirish masalasining echimini topish jamiyatning tinch barqaror rivojlanishini taminlashning asosiy omili, qolaversa vositalaridan biri bo’lishi kerak.

Foydalanilgan adabiyotlar ro’yxati

1. Mirziyoyev Sh.M. Yangi O’zbekiston taraqqiyot strategiyasi. To’ldirilgan ikkinchi nashri.-Toshkent “O’zbekiston” nashriyoti, 2022. - B.330-331.
2. YAxshilikov J.YA. Falsafa. Darslik (bakalavr yo’nalishi uchun). – Samarqand: Samarqand davlat universiteti, 2025.– B.14.
3. <https://www.uzreport.news/politiss/shavkat-mirziyoev-dunyo-arashni-nima-uzgartiradi-ilm-daromad-manfaat>